

TOG‘AY MURODNING EPIK YO‘SINDAGI XALQONA NASRI

Temirova Nazira Akbayevna

Termiz shahar 26-maktab o‘qituvchisi

E-mail: nazirashuxrat1992@gmail.comDOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21929164>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning ijodiy faoliyati, badiiy adabiyotga kirib kelishi, o‘ziga xos uslubi, adib asarlaridagi xalqona ruh va milliy kolorit tushunchalarini o‘rganish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: Ijodkor maqsadi, qissachilik, roman va tarjima, xalqona udum, ko‘chim va o‘xshatishlar.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению творческой деятельности Тогая Мурода, его вхождения в мир прозы, его уникального стиля, а также концепций народного духа и национального колорита в произведениях писателя.

Ключевые слова: Творческая цель, повествование, роман и перевод, народная традиция, перенос и аналогия.

Abstract: This article aims to study the creative activity of Togay Murod, his entry into fiction, his unique style, the concepts of the folk spirit and national color in the writer’s works.

Keywords: Creative purpose, storytelling, novel and translation, folk tradition, transfer and analogy.

Tog‘ay Murod XX asr o‘zbek adabiyotida biror ijodkorda hali uchramagan ijod uslubi, ifoda ohangi bilan ijod olamiga kirib kelgan yuksak iste’dod sohibidir. Adib Said Ahmad: «Nazarimda, Tog‘ay Murod qissa aytmaydi, bor ovozi bilan qo‘shiq aytadi. Bu qo‘shiqda avj pardalar bor, nolishlar bor, savt bor» deganlarida faqat Tog‘ay Murodgagina xos, yangi o‘zbek nasri mahsuli sifatida yuzaga kelgan ijodni nazarda tutgan edilar.

Tog‘ay Murodning «Sharq Yulduzi» jurnalida (1976 yilda) «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi bosilib chiqdi-yu, uni butun el tanidi. Asar yilning eng yaxshi qissasi deb tan olindi. Bu haqida ijodkor shunday yozadi:

“Men o‘rta maktabni bitirib shunday niyat etdim: o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlargacha uylanmayman oila qurmayman, biror idorada faqat tarixchilik uchun ishlayman. Men faqat bir maqsadni ko‘zladim: faqat jahon adabiyotini o‘qish. Faqat o‘qish, o‘qish, o‘qish, qo‘l qotib qolmasini uchun mayda hikoyalar mashq etib turish. Men shu niyat yo‘lida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shon shuhrat qizg‘anmadim[1].

Nihoyatda... nihoyatda sanoqli kunlarda “Yulduzlar mangu yonadi” nomli birinchi qissamni yaratdim.

Men bu qissam bilan g‘animlarimga:

“Mana men kimman degan bo‘ldim”.

Qissa elga manzur bo‘ldi”.

Tog‘ay Murodning birin-ketin qissalari chop etila boshladi. 1979-yilda «Ot kishnagan oqshom», 1980-yilda «Oydinda yurgan odamlar», 1985-yilda «Momo er qo‘shig‘i» qissalari yaratildi. Barcha qissalarda Tog‘ay Murod tug‘ilib o‘sgan Surxon vohasi, Xo‘jasoat qishlog‘i Denov tumani xalqi hayoti tasvirlanadi. Bu qissalari uchun adib Respublika yozuvchilar uyushmasi Oybek nomidagi mukofoti bilan taqdirlandi.

Tog‘ay Murod 1986-1991-yillarda «Otamdan qolgan dalalar» romani ustida ishladi, asar 1993-yili yozilib tugatildi[2].

1994-yili istiqlol davri o‘zbek adabiyotining dastlabki sara asari sifatida Abdulla Qodiriy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

«Adabiyotimizda shunday bir nochor ahvol borki, dunyoga chiqish uchun uchqunlanayotgan yozuvchilarni e’tiborga olmaymiz. Talantli yozuvchilar hech kimni oldiga arz qilib bormaydi, hech narsa so‘ramaydi, o‘z iste’dodiga ishonib yozaveradi. Yozgan narsalari dunyo u yoqda tursin, xalqimizga ham durustroq yetib kelmaydi. Mana shu Tog‘ay Murodning asarlari. O‘zbek tilidagi go‘zal o‘xshatishlarni, milliylikni adabiyotga olib kirdi. Olib kirganda ham tumtoq shaklda emas, go‘zal bir bezaklar bilan olib kirdi», – degan fikrlarni bildirgan edi adabiyotshunos Xolmuhammad Karim[4].

Tog‘ay Murod roman va qissalari mavzusi, badiiyati, qalamga olgan muammolari, asar qahramonlari tasviri jihatidan ham o‘ziga xosdir. Surxon vohasi, qolaversa, xalqimizning azaliy udumlari, mo‘tabar

an’analari, zahmatkash, sofdil, sodda odamlari, tiniq buloqlari-yu, so’lim bog’lari, bepoyon qir-adirlari, yaylovlari butunicha Tog’ay Murod ijodiga xos tabiiylik asosida talqin etilgan.

«Yulduzlar mangu yonadi» qissasida Bo’ri polvon, Maksim, Ismoil polvonlar misolida xalq kurashchi-polvonlari, «Ot kishnagan oqshom» qissasida chavandoz-uloqchilar hayoti haqida bahs yuritiladi. Tog’ay Murod qaysi voqeani tasvirlamasin, uni shunchaki tashqaridan turib kuzatib, baholamaydi[3].

Balki butun borlig’i bilan o’zi qalamga olayotgan voqea-hodisalar ichiga kirib ketadi, polvonlar, chavandozlar bilan birgalikda harakatlanadi.

Tog’ay Murod bu asarni yozishga kirishar ekan, o’zining hayot haqidagi qarashlari, tasavvur va xulosalarini tanqidiy taftishdan o’tkazadi. Xalq hayotiga, dehqonlarning turmush tarziga kirib boradi.

Adibning “Otamdan qolgan dalalar” asarida yozuvchi ijodiy niyatini ro’yobga chiqaruvchi bosh qahramon Dehqonqul obrazidir. U qizil imperiya tuzumida dunyoqarashi shakllangan, sho’rolar siyosati tarbiasini olgan shaxs.

Dehqonqul jon-dili bilan ana shu hokimiyatga xizmat qiladi. U faqatgina tun-u kun mehnat qilishni biladi. Dehqonchilikning ustasi, bilimdoni. O’zi, ayoli va bolalarini hech o’ylamay, yog’in-sochinlarga qaramasdan, har yili mo’l hosil olishga harakat qiladi.

Adib Dehqonqul obrazi orqali o’zbek xalqining, o’zbek dehqonining o’ziga xos haykalini yaratib berdi.

Tog’ay Murod badiiy tarjima bilan ham shug’ullangan. Jumladan, J.Londonning «Boyning qizi» dramasi va qator hikoyalarini, E.Seton-Tompsonning hayvonotlar olami haqidagi mashhur «Yovvoyiy yo’rg’a» asarini o’zbek tiliga mahorat bilan o’girdi[5].

Xullas, Tog’ay Murod o’zbek adabiyotiga xalq og’zaki ijodi janrlaridan-dostonlardagi nasriy ifoda, klassik adabiyotimizdagi saj san’ati, so’zlarni o’ziga xos takror qo’llash, xalq tilining jozibali ko’rinishlarini qayta kashf etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Yangi o’zbek adabiyoti. o’quv-uslubiy majmua. Guliston, 2016. – 165 b.
2. XX asr o’zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: «O’qituvchi», 1999. – 203 b.
3. Murod T. «Otamdan qolgan dalalar. – T.: 1994. – 272 b.
4. «Men qaytib kelaman». Tog’ay Murod zamondoshlari xotirasida. Nashrga tayyorlovchi: Ahmedova M. – Toshkent, 2012.
5. Tog’ay Murod qissa va hikoyalari. <https://www.ziyouz.com/>